

RAQAMLI MUHITNING BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Abduraximova Sarvinoz Sa'dullayevna
Navoiy viloyati innovatsiyalar universiteti
pedagogika yo'nalishi 1-kurs 1-guruh talabasi.

Hozirgi zamonaviy dunyoda raqamli muhit-smartfonlar, planshetlar, kompyuter va internet bolalar balki butun bir insoniyatning hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bunday texnologiyalar, ta'lim va ilmiy rivojlantirishda, shuningdek ijtimoiy aloqalar uchun keng imkoniyat yaratgani bilan birga bolalar psixologiyasiga ham juda sezirarli ta'sir ko'rsatib kelyapti.

Bugungi kunga kelib bolalar raqamli dunyoda ulg'ayishmoqda. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar planshet kompyuterlarda har xil o'yinlar o'ynash bilan vaqt o'tkazishsa, o'smir yoshdagi bolalar esa ijtimoiy tarmoqlarda har xil kontentlar bilan vaqt o'tkazishyapti. Bunday xolat esa ularning kognitiv emotsional rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Raqamli muhit va texnologiya bolalarga ijtimoiy rivojlanish, ijodkorlik shuningdek global dunyo bilan bog'lanish imkonini beradi. Biroq bunday imkoniyatlari bilan birga xavf-xatarlar ham tug'diradi.

Raqamli texnologiyalarning ijobiy tomonlarini sanab o'tadigan bo'lsak ular quyidagicha;

1. Onlayn platformalar va ta'lim ilovalari o'quv dasturlarini yanada kuchliroq o'zlashtirish imkonini beradi.

2. Ijodkorlikni rivojlantirishi ham mumkin. Masalan, videorolik dizaynerlaridan foydalanish ularni ijodkorligini oshiradi, fikrlash shuningdek dunyo qarashini ham kengaytirishi mumkin.

3. Ko'plab mantiqiy o'yinlar o'ynash, xotirani kuchaytirishi aqliy salohiyatni o'stirishi mumkin b

Raqamli texnologiyalarning ijobiy tomonlari bo'lgani kabi salbiy tomonlari ham yetarlichadir.

1. Ekran oldida haddan ortiq o'tirish depressiya bolalarda diqqatning buzilishi, xotiraning susayishi kabi xolatlarga sabab bo'lishi mumkin.

2. Hozirgi kunda dolzarb bo'lgan mavzulardan yana biri ijtimoiy tarmoqlardagi "ideal hayot" tasvirlari bolalarda o'zini boshqalar bilan solishtirish va bu natijada o'ziga bo'lgan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi va ruhiy xolatiga ta'sir qilmay qo'ymaydi ham.

3. Ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazgan bolalar real hayotdagi munosabatlari zaiflashishi oila a'zolariga bo'lgan munosabatining buzilishiga olib keladi.

So'ngi besh yillikka to'xtaladigan bo'lsak iqtisodiyot fan va innovatsiyalar yurtimizda tubdan o'zgardi bu juda yaxshi va ijobiy tomonlari juda ko'p. Yurtimiz, butun bir jamiyat insoniyat rivojlanyapti. Ular, rivojlanar ekan raqamli muhit ham jadal o'sib bormoqda. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar aqli, tafakkuri hali to'laqonli rivojlanmay turib qo'lga smartfonlar, planshetlar berish uning mas'uliyatini so'ndirishi mumkin.



Date: 27th June-2025



Yuqorida aytib o'tganimizdek boshqalarning " ideal hayot"larini ko'rib bu dunyoda yashash oson deb o'ylab qoladi. Ular hali qiyinchilik nima ekanligini bu hayotga nimaga kelganini unutib qo'yishi mumkin. Bola tug'ilmasdan boshlab balki ilk ona qornidagi onidan boshlab bu hayot nima uchun berilganini uqtirish ya'ni Allohni tanitish joiz deb bilaman!

Arablarda bir donishmand shunday degan ekan." Bobom tuyada yurardi,dadam otda va men mashinada yuryapman. Vaqti kelganda mening bolam ham tuyada yuradi"degan ekan. Aslida bu gapning ostida juda ko'p ma'no bor. Hozirgi zamonaviy bu dunyoda yosh bolalarni to'g'ri yo'naltirish nafaqat ota-onaning balki butun bir jamiyatning vazifasidir. Yosh bolalarning smartfon, kompyuter, planshetga qiziqishi tabiiy xolat lekin ota-ona o'z tinchini o'ylab farzandlarini yomon yo'lga kirib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Har bir yosh bola juda qiziquvchan bo'ladi. Raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanish va ularni to'g'ri targ'ib qilishda farzand hayotida ota-onaning roli muhimdir. Farzandni to'g'ri yo'lga boshlash ularning hayotida faqat smartfon va kompyuterlar bilan yoki sport bilan vaqtlarini o'tkazish uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berish lozimdir. Shuningdek, Yurtboshimiz ham hozirgi kunda har bir yosh avlod uchun juda katta shart sharoitlar yaratib berdilar biz faqat bunday imkoniyatlardan unumli foydalansagina kifoya. Raqamli texnologiyalar ilmiy tafakkur kuchli bo'lgan insonlar tomonidan yaratilgan albatta har bir insonga manfaatli ishi uchun. Shunday ekan,bunda ota onalarning roli juda muhimdir. Ota-onalar bolalar uchun yoshiga mos ekran vaqti belgilashi kerak. Bolalarning foydalanadigan ilovalari va o'yinlarini sinchkovlik bilan tanlashi kerak. Ta'limiy va ilmiy dasturlar afzalroqdir. Bolalar bilan doimiy suhbatda bo'lish ularning fikrlarini eshitish dunyo qarashlarini o'rganish va internetdagi xavf-xatarlar haqda tushuntirish juda muhimdir. Yuqorida aytib o'tganimiz kabi raqamli muhit har bir bolaning kognitiv rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Raqamli muhit bolalarning rivojlanishiga ikki xil ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan integrativ ta'sir ko'rsatadi. O'yinlar va ta'lim ilovalari diqqat, xotira va muammoni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirib rivojlantiradi. Misol uchun strategik o'yinlarni oldigan bo'lsak ular bolalarda oldindan rejalashtirish va muqobil yechimlarni topishni o'rganadi. Ammo boshqa tomondan diqqatini uzoq ushlab turolmaslik holatlari yuz berishi ham mumkin.

Raqamli texnologiya bolaning hissiy xolati ya'ni emotsional rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi. Agar bola kutilgan darajada mehr olmasa o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Masalan, o'smirlik yoshdagi bolalarni olaylik ular ijtimoiy tarmoqlarda post joylar ekan ham"like" yig'a olmaganida ular o'zini" muvaffaqiyatsiz" deb hisoblay boshlaydi. Shu bilan birga, raqamli o'yinlarda yutqazish yoki ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy fikrlar g'azab, xavotir, stressni keltirib chiqaradi. Bunday hodisalar hozirgi kunda juda ko'payib ketyapti. Bundan tashqari bunday salbiy muhit bolalarning yuzma-yuz insonlar bilan muloqotiga ham ta'sir ko'rsatadi ya'ni empatiya qobiliyatini susaytiradi.

Date: 27th June-2025

Virtual muloqotga ko'proq e'tibor qaratish bolalarning boshqa odamlarning his tuyg'ularini his etish ya'ni tushuna bilish qobiliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi albatta.

Bunday xavfdan holi bo'lish uchun ta'lim jarayonida ota-onalar uchun alohida treninglar tashkil qilish va raqamli tarbiya bo'yicha darslar olib borish lozim. Bolalarning raqamli muhitdan chetlashtirishning imkoni yo'q ammo ularni bundan foydalanishga o'rgatish salbiy va ijobiy tomonlari tushuntirish zamon talabidir.

Raqamli muhit bolalar psixologiyasiga murakkab va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. U ta'lim, ijodkorlik va ijtimoiy aloqalar uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi lekin ayni paytda qaramlik stress ijtimoiy izolyatsiya va emotsional muammolar kabi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Bolalarning kognitiv emotsional va ijtimoiy rivojlanishini muvozanatlash uchun ota-onalar o'qituvchilar va jamiyat birgalikda harakat qilishi kerak. Raqamli muhitni tog'ri boshqarish orqali uning foydali tomonlarini oshirib salbiy tomonlarini kamaytirish mumkin.

Bolalarning ruhiy salomatligi va baxtli kelajagi uchun bugundan choralar ko'rish zarur. Ularning kelajagi va jamiyatdagi o'rnini ota-onalarning qo'lidadir. Muhit to'g'ri shakllansagina har bir bola o'sha oilaviy muhit ta'sirida katta bo'ladi.

"Ota-onalarga bolalarni raqamli muhitdan to'g'ri chetlashtirish o'rniga ekran vaqtini muvozanatlash va real hayotdagi ijtimoiy faoliyatlarni (masalan oilaviy yig'inlar, sport yoki guruhli mashg'ulotlarni) rag'batlantirishni tavsiya qiladi. O'zbek oilalarida an'anaviy munosabatlar muhim bo'lsada, bolalar virtual "do'stlik"ka ko'proq e'tibor qaratib, samimiy munosabatlarni yo'qotishi mumkin."

Muallif: Dilbar Maxsumova;

Kitob: Bolalar psixologiyasi (2018) 156-158 betlar

